

## Sherali Turdiyev



**ELBEK**

**“Marifat” gazetasi  
2008**

XX asrning 20-yillarida Turkiston adabiyoti va matbuoti maydoniga kirib kelgan Shokir Sulaymon, G'ayratiy, Ziyo Said, Rafiq Mo'min kabi Elbek(Mashriq Yunusov) ham bu davrda yangi o'zbek ma'rifati, madaniyati sohasida faol ish olib bordi. U «Armug'on»(1921), «Ko'zgu», «Yolqinlar»(1925), «Bahor»(1929) she'riy to'plamlarini, «Oyxon»(1920), «Qo'shchi Turg'un» (1925) hikoyalar to'plamlarini nashr ettirdi. O'quv kitoblari va til qo'llanmalari borasida «O'rnak»(1924), «Go'zal yozg'ichlar»(1925), «Bilim»(1927), «Boshlang'ich maktabda ona tili», «Lug'at va atamalar»(1924) kitoblarini yaratdi, o'zbek folklori asarlarini to'plab, nashr ettirdi («Laparlari»(192), «Ashulalar to'plami», «Bolalik qo'shiqlari»(1934, 1935) va boshqalar).

Elbek rus klassik adabiyoti targ'iboti bilan ham qizg'in shug'ullanib, A.S.Pushkinning «Baliqchi va baliq haqida ertak», «Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak»(1937), I.Krilov masallari, N.Nekrasov she'rlarini o'zbekchalashtirdi. «Pushkin ijodida xalq adabiyoti va o'zbekcha tarjima» (1937) kabi maqolalari bilan tarjimachilik ishlariga munosib hissa qo'shdi.

U tog' yonbag'ridagi qishloqda og'ir bolalik yillarini kechiradi. Tug'ilgan qishlog'idagi moddiy va ma'naviy qiyinchiliklar, Toshkentda kechgan og'ir kunlari, sarson-sargardonlik, ma'rifatga bo'lgan chanqoqlik va bu yo'ldagi xilma-xil to'siqlar bo'lajak shoirning butun hayot va ijod yo'lga ham ta'sir etmay qolmadi.

Elbek 1898 yili Toshkent viloyatining sobiq Iskandar bo'lisining Xumson qishlog'ida kambag'al dehqon oilasida tug'iladi, bolalik ham yoshlik yillari juda og'ir o'tadi.

Shoir keyinchalik bu haqda eslab shunday deydi: «1905 yili qishloq eski maktabiga kirib o'qidim. Bu maktabda 4 yil o'qib, o'quv-yozuvni o'rgandim. Otamning mendan boshqa ham bolalari bo'lgani uchun bizni boqa olmasdi. Men yoshlikdan dehqonchilik ishlariga berildim. 1910 — 1911 yillarda juda qiyinchilik va shuning natijasida boshqa aka-ukalar kabi men ham uyni tashlashga majbur bo'ldim.

Toshkentga 1911 yilda birinchi marotaba keldim, bunda bir kishiga qarol bo'lib ishladim. Shu yilda Eski shahar Devonbegi mahallasidagi «Xoniy» maktabiga o'qishga kirdim. O'qishga kirish meni sevintirdi, lekin moddiy yoqdan ko'p siqilganlik ancha xafa qilardi. Hatto qish kunlari oyoqyalang qoldim. Yotar yer yo'q. Ba'zan o'rtoqlarim uyida, ko'pincha maktab hujrasida eski namat orasida o'ralib yotib, qish o'tkazardim». Bunday uzluksiz qiynalishlar uning asablarini bo'shashtiradi, dars vaqtlarida muallimlar bilan ba'zi kelishmovchiliklarga olib keladi.

U intizomsizlikda ayblanib, maktabdan haydaladi. Shu qiyinchiliklarga qaramay, Elbek 1914 yili shahardagi «Namuna» maktabiga kirib o'qiydi va muallimlik ham qiladi, keyinchalik 1917 yil Oktyabr davlat to'ntarishidan keyin Toshkentda o'qituvchilar tayyorlov kurslarida o'qiydi. Elbek yoshlik yillarida o'z boshidan kechirgan qiyinchiliklarni «O'tmishim» nomli dostonida shunday iztirob va alam bilan

eslaydi:

*Qarol bo'lib ishladim,  
Bir burda non tishladim.  
Turmushim kun-kun og'ir  
Bo'ldi, yiqildim oxir.  
Keksa qari otamni,  
Mungli boyaqish onamni,  
O'z holiga tashladim.  
Shaharga yo'l boshladim.  
Biroq qorin to'yg'izish  
Bundan ham og'ir bo'ldi.  
Kimsalarga sarg'ayib  
Gulday yuzlarim so'ldi.*

Elbekning 20-yillar boshlarida Turkistonda mustamlakachilik asoratlariga qarshi xalq orasida kechgan shiddatli kurashlar ta'sirida yozilgan «Til»(1920), «Qurolga», «O'zbek yigitiga»(1922), «Bibixonim madrasasi»(1925) kabi she'rlarida shu davrda yaratilgan Fitratning «Mirrix yulduziga», Cho'lponning «Buzulgan o'lkaga»(1920), S.Ayniyning «Biz kim?»(1919), «Bibixonim madrasasi»(1921), Botuning «So'rma» kabi milliy istiqlochilik g'oyalari bilan yo'g'rilgan asarlariga hamohang bo'lib yangradi. Uning 20-yillarning ikkinchi yarmidan so'ng O'zbekistonda o'tkazilgan turli kampaniyalar ta'sirida yaratilgan «Batrak Qoravoy», »Hujum» kabi she'rlari, «Oyxon», «Qo'shchi Turg'un» kabi hikoyalarida uning zamondoshlari Shokir Sulaymonning «Erk kuylari»(1926), Z.Bashirning «Ozodlik qurbonsiz bo'lmaydi» kabi she'r va hikoyalariga xos bo'lgan ijtimoiy-siyosiy g'oyalar publitsistik ruhda bayon qilindi. Shoirning «Qo'shchi Turg'un», «Batrak Qoravoy» hikoyalarida o'zbek dehqonlarining og'ir ahvoli, ezilishlari qalamga olinadi. Bu, ayniqsa, uning «Qo'shchi Turg'un» hikoyasidan Turg'unning o'z xo'jayini Muhammadamin dalasida o'zi kabi birga ishlab rohat ko'rmagan xizmatchilarga qarata aytgan ushbu so'zlarida, ayniqsa, ochiq ko'rinadi: «Biz shu xo'jayinlarning ishlarini ishlaguvchi kishilarmiz, biz yil — o'n ikki oy ishlaymiz-da, orttirgan narsamizga qornimiz yolchib to'ymaydi, tanimiz esa yaxshiroq kiyim ko'rmaydi. Biz ishlab turib to'ya olmasak... Biz ham ulardek bir odam. Nechun biz xo'jayinimizga beraturgan narsangiz oz, ko'proq bering, — deb aytmaymiz. Basharti, yolg'iz aytishga qo'rqqanimizda nechun to'planib turib so'ramaymiz. Agar to'planib turib aytsak, ular nima qiladilar. O'zlari qo'shning qulog'ini tutib yer haydarlar, deb aytasizmi. Biz ishlamasak, bular och qolganlaridan so'ng, albatta, biz bilan kelishishga majbur bo'ladilar».

Shoir she'rlarida bugungi kun uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan muhim tarbiyaviy masala bo'lib borayotgan ekologik masalalar: tabiat go'zalliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi, o'zi yashab o'sgan tog' va toshlar jilvasi, qishi va yozi, bahor quvonchlari, mehnat shavqining quvonchlari samimiy kuylanadi. Masalan, «Bizning qishloq»(1921) she'rida o'z qishlog'i go'zalligini shunday chizadi:

*Bizning qishloq shahardan ko'p uzoqda,  
Buyuk tog'ning etagiga solingan.  
Aylanasi ko'rkam, yuksak tog' bilan,  
Qal'a kabi qattiqqina o'rolg'on,  
Biz shul yerda qishin-yozin o'lturub,  
O'tkazamiz umrimizni yer surib.  
Qishda butun qishloqdan hech qo'zg'olmay  
Turadirmiz molimizni boqishib,  
Qachon yetib kelsa bahor oylari.  
Erib oqsa soylardan qor suvlari,  
Sevinamiz «Bahor oyi keldi» deb,*

*«Ekin ekar chog'lar yaqin qoldi» deb.  
Katta-kichik barcha birdan qirlarg'a  
Ketadirmiz ekinlarni ekarg'a.  
Mana shul choq bizning qishloq tinchgina,  
Kirisharlar biz qaytguncha uxlarga.*

Elbek she'riyat, hikoyachilik sohasidagina emas, o'zbek tili va folklori sohasida ham qalam tebratgan ma'rifat sohibidir. Bu sohada u professor G'ozim Olim Yunusov, Hodi Zaripov, Buyuk Karimov kabi tilshunos, folklorshunos olimlar bilan birgalikda o'zbek xalq tili (dialektlari) va folklorini yig'ish, nashr etish ishlarida, o'zbek folklori istilohlari lug'atini tuzishda, imlo masalalari muhokama va munozaralarida ham faol qatnashib keladi. U 1919 yil boshlarida Fitrat rahbarligida tuzilgan «Chig'atoy gurungi»da ishtirok etib, keyinchalik Shokirjon Rahimiy, G'ozim Yunus bilan birga o'zbek ilmiy komissiyasi rahbari ham bo'lib ishladi; Cho'lpon, G'ulom Zafariy va boshqalar bilan birga Farg'onada minglab xalq maqol va matallari, qo'shiq va laparlari, etnografiya materiallarini to'pladi. «O'zbek xalqining izohli lug'atiga materiallar» nomli ish yozdi. O'zbek tilining mukammal izohli lug'atini yaratish uchun muhim manba bo'la oladigan «O'zbek folklori lug'ati»ni tuzishga kirishdi va xalq og'zaki ijodi namunalari yig'ishning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalari haqida birinchilardan bo'lib shunday bong urdi: «Adabiy qimmatni o'z ichiga olgan chuqur ma'nolari bilan ko'ngilni o'ziga tortadurgan matal, ertak, cho'pchak, jumboq va laparlarimiz bugun o'z-o'zidan yo'qolib boradir.

Bularning kundan-kun yo'qolib ketmoqda ekanini ko'rib turg'on biz o'zbeklarning, albatta, jim turmay, bularni to'plamga va kitob ravishda bostirib tarqatishga harakat etmagimiz tegishli edi.

Bu kunlarda shu tilakni ilgariga surib harakat qiluvchi «O'zbek bilim hay'ati» va ilmiy kengashi, ilmiy o'rinlar bor esa-da, bir tomondan, bularni to'plash ishiga qiziqqan kishilarning bo'lmasligi, ikkinchidan, xalq adabiyotimizning eng yuksalgan o'rinlarining tinchsiz bir holda qolib turgonligi bu harakatlarga to'siq bo'lib turmoqdadir».

Elbek o'zbek tilining boyligi, rang-barangligi, manbalari, ishlanishi va qo'llanish yo'llarini o'rganish bilan muttasil shug'ullanib keldi, bu sohada qator maqolalar va qo'llanmalar yozdi («Imlo va til qurultoyining chaqirilishi oldidan»(1920), «O'lka o'zbek imlo qurultoyi va uning qoldirgan ta'siri», «Turk tillari qonunlari to'g'risida»(1922), «Til darsligi»(1923), «Tilimizdagi yangiliklar(1924), «Yana til, imlo masalasi»(1925), «Imlomiz ustida bir necha so'z»(1927), «Til-implomiz ustida»(1929) va boshqalar). Lekin, afsuski, shoir va ma'rifatchi, folklorist, tarjimon ham tilchi Elbek Stalin shaxsiga sig'inish yillari nohaq millatchilikda ayblanib qoralandi va u haqda o'sha davr matbuoti shunday deb yozdi: «Fitratning eng sodiq shogirdi Elbek aksilinqilobchilarning qonli lagerida turib, partiyaga va sovetlarga qarshi zaharli she'r, masal, maqolalar yozdi. Aksilinqilobchilarning gazeta, jurnallari ko'pincha Elbekning she'risiz chiqmas edi. Elbek o'zining istar o'tmishda, istar hozirgi ijodi bilan sovetlarga qarshi dushman tegirmoniga aktiv ravishda suv quyib keldi». (J.Sha'rifiy, «Elbekning ijodi haqida», «Yosh leninchi», 1937 yil 20 avgust). Pirovardida, Elbek ham shu davrda o'zining do'stlari: Fitrat, Cho'lpon, A.Qodiriy, O.Hoshimov, M.B.Solihov, G'ozim Olim Yunusov va boshqalar qatori begunoh ayblanib, qurbon bo'ldi. 80-yillarning oxirlari va O'zbekiston mustaqilligidan keyingi davrlarda Elbek merosi qizg'in to'plana boshlandi, adabiyotshunoslardan Nurmuhammad Qobulov, Ortiqboy Abdullaev, Haydarali Uzoqov uning asarlarini to'plab, so'zboshi va izohlar bilan nashr qildilar, ayrim asarlari darslik va xrestomatiyalardan qaytadan o'rin ola boshladi. Boshqacha qilib aytganda, uning hayoti va ijodi O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingina ro'shnoqlik ko'rди. Uning eng yaxshi asarlari bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

## Sirojiddin Ahmad

### VADUD MAHMUD

#### “Marifat” gazetasi 2008

O'tgan asr o'zbek adabiy va teatr tanqidchiligida sezilarli iz qoldirgan siymolardan biri samarqandlik shoir va munaqqid, tojik tili grammatikasi muallifi Vadud Mahmud (1898—1976). U o'z davrida sho'ro mafkurachilari va komfirqa tomonidan keskin ta'qib qilindi, madaniyatchilar qurultoyida Cho'lpon, Fitrat, Elbek va boshqalar qatori ma'naviy kaltaklandi, quvildi.

Vadud Mahmud o'zbek adabiyotiga ko'pgina zamondosh va tengdoshlari qatori madrasa ilmi bilan kirib keldi. Uning badiiy-estetik qarashlari xususiy mutolaasining kuchliligi tufayli o'ziga xos tarzda shakllangan edi. Keyinchalik turk hamda rus adabiyoti va adabiyotshunosligi bilan kengroq tanishuvi natijasida dunyoqarashi yanada kengaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Mardonqul Shomuhamedov yangi ijtimoiy hayot bilan tanishtirgan bo'lsalar, Fitrat uni ma'rifat, madaniyat va adabiyotning mutlaqo yangi olamiga olib kirdi...

Vadud Mahmud Samarqand viloyati Yuqori Darg'om tumanining Toyloq qishlog'ida Mahmud Pirmuhamedov va Anvara Pirmuhamedova oilasida tug'ilgan. Yetti yoshida otadan yetim qolgach, onasining Rajabamin qishlog'idagi hovlisiga ko'chib boradilar. O'z so'ziga qaraganda, ularning 12 tanob yeri, bir sigir va ikki bosh qo'yi hamda bog'i bo'lib, singlisi Sabohat, jiyani Munira va Hamid uning qaramog'ida yashaganlar. U Rajabamindagi muallim Abduqodir Shakuriyning maktabida, uning rafiqasi Roziya otin va shaxsan Shakuriyning o'zidan ta'lim oladi. 1912—1913 yillari ustози Shakuriy Istanbulga borib, maktab ishlari bilan tanishib qaytadi. Ustози Turkiyadan keltirgan adabiyotlarni o'qib, turk nasr va nazmidagi yangiliklar bilan oshno bo'ladi. «Shakuriy turk-tatar mafkurasini juda hurmat qilib, ularning mafkurasini ta'sirida edi. Ularning fanini ilg'or hisoblar edi», deydi V. Mahmud. U qozi Haydarbek Abusaidovdan ham saboq oladi. Chamasi, 1915—1916 yillari Shahrisabzda o'qituvchilik qilayotgan Fitrat Shakuriy bilan fikrlashgani keladi va yosh Vadud bilan tanishadi. Buxoro va Samarqand yoshlari orasida ancha mashhur bo'lgan Abdurauf Fitrat va muallim Ismoil Sadriy bilan birodar tutinishi natijasida ulardan shoir Muhammadaminbek Yurdaqul she'rlari va ismi noma'lum adibning «Buyuk Turon» romanini olib o'qib chiqadi. «Biz Muhammadaminbek she'rlarini qo'shiq qilib aytar edik», deydi Vadud Mahmud ko'rsatmalaridan birida. Shu davrda Abduqodir Karimov, Akobir Shomansurov kabi ma'rifat fidoyilari bilan do'stlashadi. Bu ijtimoiy-adabiy muhit Vadud Mahmudning tafakkuriga ta'sir ko'rsatmay qolmadi. 1917 yil kuz faslida Fitrat bir necha Samarqand va Buxoro yoshlari qatori uni Ufaga olib borib, Madrasai Oliyaga joylashtiradi. O'zi ham o'sha yerda 20—30 kun turib, ishni pishitib qaytadi. Mahmudiy 1918 yil bahor faslida tahsilni tugatib, maxsus hujjat bilan Toshkentga keladi, so'ng Samarqandga qaytadi. Yoz oyigacha pedagogika kursida o'qiydi. 1919—1925 yillari o'qituvchilik qiladi. Ammo bu orada Buxnerning «Modda va quvvat» asari bilan tanishadi hamda ashaddiy materialistga aylanadi. 1919—1921 yillari komfirqaga kiradi va Samarqand shahar maorif bo'limiga mudir etib tayinlanadi. Taxminan, 1922 yili Jizzax shahar maorif bo'limi mudiri vazifasiga o'tkaziladi. 1923 yili Toshkentga kelib, O'rta Osiyo davlat universitetining iqtisod fakultetida o'qiydi. Oradan ko'p o'tmay Samarqand pedagogika institutiga mudir bo'ladi, ammo kimlargadir fe'li yoqmay qolgani uchun yana Samarqand maorif boshqarmasiga mudir etib o'tkaziladi.

Vadud Mahmud 1930 yil 18 avgustda bergan ko'rsatmasida shunday deydi: «Ta'kidlashim kerakki, inqilob vaqtida mening mafkuram bir necha marta o'zgardi. Bolalik va o'smirlilik paytimda diniy ruhda tarbiyalandim. 1917 yili «Modda va quvvat» bilan tanishib, din bilan aloqamni uzdim... Asta-sekin o'zim sezmagani holda Qur'on o'qish bilan shug'ullanib, ayrim sura-oyatlarning qiroati vaqtida

yig'laydigan bo'ldim, shunday qilib, boshimda sallayu, yana dindor odam bo'lib qoldim».

Abdurauf Fitrat 1919—1920 yillari Toshkentda yashagani, «Chig'atoy gurungi» uyushmasini rasmiy tashkil etib, «Tong» jurnalini nashr ettirgani ko'pchilikka ma'lum. Ana shu paytda u Vadud Mahmudni Cho'lpon, Elbek, Botu bilan tanishtiradi. Ular chin do'st, ayniqsa, Cho'lpon bilan ijodiy masalada o'zaro maslahatlashadigan maslakdoshlarga aylanadilar. (U Samarqandga qaytgach, «Chig'atoy gurungi»ning bo'lagini tashkil etadi.) Vadud Mahmud Toshkentdalik kezlari Fitrat va Cho'lpon yordamida Munavvar qori Abdurashidxonov, Obidjon Mahmudov, Nabi Rasulov, Tolibjon Musaboev, Salimxon Tillaxonov, Laziz Azizzoda, Husaynixon Niyoziy, Saidalixo'ja Usmonxo'jaev, Eshonxo'ja Xoniy, Shohid Eson, Tangriqul Maqsudiy kabi vatanparvar ziyolilar bilan tanishadi. Buxoro inqilobidan so'ng Fitrat taklifi bilan Buxoroga borib, maorif sohasida faoliyat olib boradi. Buxorodan yana Samarqandga qaytib, maorif boshqarmasida ishlashni davom ettiradi. Ammo allakimlarningdir ta'siri bilan 1923 yili vazifasidan nohaq chetlashtiriladi. Bu haqda Abdulhamid Sulaymon—Cho'lpon «Turkiston» gazetasida norozilik bildiradi. U shu yili firqadan o'z ixtiyori bilan chiqadi. 1925 yili Moskvaga borib, Adabiyot va san'at institutiga o'qishga kiradi. 1930 yil 22 avgust ko'rsatmalarida xotirlashicha, Moskvadalik paytida Muhiddinqori Yoqubov, Abdulhay Tojiev, Shokir Sulaymon, Botu, Vosil Muhammadiev, Ishoq qori Karimov bilan uchrashib turadi.

Xullas, Vadud Mahmudning Moskvadagi hayoti ajib tarzda kechdi: ilmga chanqoq bo'lgani uchun Turkiya elchixonasi bilan aloqa o'rnatib, elchixonadan 12ta turk adabiyotiga oid kitob oladi, «Hokimi milliya» gazetasi bilan kutubxonalar orqali tanishib boradi, Sharq xalqlari nashriyotida direktor bo'lib ishlayotgan Nazir To'raqulov yordamida turkcha kitoblarni mutolaa qiladi, Umar Xayyom bilan tanishadi.

U yerdan 1926 yili Samarqandga keladi. Bu yerdagi ishlarini bitirib yana o'qishga qaytmoqchi bo'lganda, maorif komissari D.Rizaevning topshirig'i bilan «Maorif va o'qitg'uvchi» jurnalida mas'ul kotib lavozimida faoliyat olib boradi. Ammo oradan bir yarim yil o'tgach, mafkuraga to'g'ri kelmaydigan maqolalar e'lon qilding, degan bahona bilan ishdan chetlashtiriladi.

1928 yildan matbuot va maorif ishlaridan chetlashib, davlat nashriyoti va turli tashkilotlarda tarjimonlik bilan kun kechiradi. Ammo uning adabiy-badiiy quvvatini sezgan Cho'lponga o'xshagan do'st va zamondoshlari uni ko'proq badiiy ijod bilan shug'ullanishga yo'naltirishga harakat qiladilar.

Vadud Mahmud 1919—1930 yillari Turkiston, Buxoro matbuotida faol ishtirok etadi. Cho'lpon, Fitrat ijodi haqida maqola-taqrizlar yozadi. O'zbek shoirlari, xususan, Cho'lpon va Fitrat ijodi haqida Abdurahmon Sa'diy bilan «Turkiston» va «Zarafshon» gazetalari sahifalarida bahs olib boradi. Sevimli adib do'stlari faoliyati haqida hali kuch olmagan bolshavoycha dunyoqarash nuqtai nazaridan emas, balki insonni kamolotga, go'zallik manzillariga chorlash nuqtai nazaridan fikr yuritadi. Chig'anoq ichiga yashiringan dur singari so'z og'ushidagi o'tkir va teran ma'nolar, parvozlantiruvchi, qablarni porlatuvchi suluv timsollar, ramzlar, tashbehtar xususida fikr yuritadi. 1925—1928 yillari «Maorif va o'qitg'uvchi» jurnali, «Qizil bayroq», «Turkiston» gazetalarda bosilgan Fitrat, Cho'lpon, Siddiqiy-Ajziyga bag'ishlangan maqolalari, xususan, Cho'lponning «Buloqlar» to'plami, Fitratning «Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari» piesalariga bag'ishlangan maqolalari fikrimizga dalil bo'la oladi. O'sha davrda unga «Qizil qalam» uyushmasida Cho'lpon ijodi haqida ma'ruza qilish topshiriladi. Vadud Mahmud o'z ma'ruzasida Cho'lponni tanqid etishga emas, balki uning ijodi badiiy xususiyatlarini kashf etishga intiladi. Shoir Oltoy va qalamkash Nosir Saidning 1930 yil 8—12 avgustda bergan ko'rsatmalariga qaraganda, Vadud Mahmud 1925 yilgi ma'ruzasini avval mumtoz shoirlar ijodini targ'ib qilishdan boshlagan. Boshqalarning eslashicha, u Mashrab ijodini Cho'lpon ijodi bilan chog'ishtirgan.

Uning o'zi 1930 yil 23 avgustdagi ko'rsatmasida: «Menga Cho'lpon haqida ma'ruza qilishni topshirishdi, men Cho'lpon she'rlarining Mashrab she'rlariga o'xshash tomonlarini muqoyasa qilganimda, sho'ro ziyolilari dinni targ'ib etmoqdasan, deb ayblashdi. Men buni ataylab qilganim yo'q edi...», deydi. Shundan keyin uni adabiy jarayonga jalb etishmaydi. 1927 yil oktyabr oyida o'tgan O'zbekiston madaniyat xodimlari qurultoyida Cho'lpon bilan barobar unga ham qattiq hujum

uyushtiriladi, javob berishi uchun imkoniyat berilmaydi va sho'ro xunveybinlari uni qurultoydan haydab chiqaradilar. Ana shu voqeadan keyin hamma narsadan hafsalasi pir bo'ladi...

V.Mahmudning faoliyatini zimdan kuzatib yurgan siyosiy boshqarma xodimlari 1930 yil 17 avgust kuni uning uyida tintuv o'tkazib, qamoqqa oladilar. Unga «millatchilik, aksilingilobiy tashkilot faoliyati haqida davlat tashkilotlariga xabar bermaganlik, bahoizm bilan shug'ullanganlikda» ayb qo'yadilar. OGPU hay'ati qoshidagi maxsus kengash 1931 yil 3 oktyabrda uch yil mehnat tuzatish lagerlarida va qo'shimcha ravishda yana uch yil mobaynida Qozog'istonda ishlashga majbur qiladi. U uch yil Toshkentda hibsda bo'lgach, Olmaotaga surgun qilinadi. 1936 yil oxiri — 1937 yil boshlarida surgundan qaytib keladi. Lekin oradan yil o'tmay, 1937 yil 18 avgustda «Milliy ittihad»ning faol a'zosi, o'tmishda aksilingilobiy, millatchilik tashviqoti olib borganlik, mashhur millatchi Ismoil Sadriy bilan aloqadorlikda» ayblanadi va 10 yilga Arxangelsk viloyatidagi Kargopol tutqungohiga surgun qilinadi. 1944 yili mazkur tutqungohda u mahbuslar orasida bahoizmni targ'ib qildi, degan ayb bilan yana 10 yilga hukm qilinadi va muddatni 1959 yili tugatib, Samarqandga qaytib keladi.

Chaqimchilar Fitrat, Cho'lpon Toshkent va Samarqandda yashagan paytlari doim ularning uyida yozuvchilar, san'atkorlar, o'qituvchilar va talabalar bo'lganini, bahor, yoz, kuz faslida o'tkaziladigan bu allaqanday tashkilot yig'inida Vadud Mahmud ham ishtirok etganini ta'kidlaydilar. Ammo Vadud Mahmud 1930—1931 yillari o'tkazilgan barcha tergov jarayonlarida o'zining maxfiy tashkilot a'zosi bo'lmaganini, bunday tashkilotni bilmasligini aytadi. 1937 yili esa, biron marta tergov o'tkazilmay, to'g'ri Kargopol mehnat tuzatish lageriga jo'natib yuboriladi. U qo'yilgan aybni ham, jazo muddatini ham o'sha yerda eshitadi.

GPU xodimlari u saqlanayotgan xonaga M.Ismoilov degan yosh talaba yigitni «quloq» sifatida birlashtiradilar. U 1931 yil 14 fevraldagi chaquvida shunday xabar beradi: «Men bilan bir xonada Vadud Mahmudov va Saidnosirxon to'ra Kamolxonto'raev o'tirishibdi. Mahmudov men bilan suhbatda shunday dedi: «1923 yil yoki undan avvalroq Samarqand ijroiya qo'mitasi yoxud Samarqand KPT(b) viloyat firqa qo'mitasi kotibi Shermuhamedov (yoki Toshmuhamedov) meni tashkilotga a'zo bo'lish uchun taklif etdi, men rozi bo'ldim, lekin a'zolikka o'tmadim, buni tergovda yashirdim... GPU xodimlari mening uyimni tintish vaqtida bir xatni topishni eplay olmadilar. Bu Cho'lpon qo'li bilan yozilgan maxfiy xat edi, men uni Qur'on ichiga yashirib qo'ygan edim».

Tergov ataylab bir yo'nalishda o'tkazilgan, ya'ni uni «Milliy ittihad» tashkilotining a'zosi sifatida ayblashga qaratilgan. Shu sababli M.Ismoilovning xabari ularga juda asqotgan. Biroq qaysar mahbus o'z so'zida turib oladi.

Vadud Mahmud surgun muddatini o'tab qaytib kelgach, 1959, 1961, 1963 yillari tegishli tashkilotlarga murojaat qilib, 1930 va 1937 yillardagi GPU va NKVD hamda Arxangelsk viloyat sudining hukmlarini bekor qildiradi. Shundan so'ng Samarqanddan Dushanbaga ko'chib ketadi. Ilmiy-badiiy ijod bilan shug'ullanadi. «Farhangi zaboni tojik» lug'atini tuzishda faol ishtirok etadi. Muallimi Abdulqodir Shakuriy haqida xotira-qissa yozib, e'lon qiladi. Sho'rolar hukumati Munavvar qori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Turor Risqulov, Nazir To'raqulov, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Elbek, Qayum Ramazon, Bo'lat Soliev, Miyonbuzrug Solihov va boshqa ko'pgina ziyolilar qatori Vadud Mahmudni ham nohaqdan nohaq jabrladi, ammo uning qalbidagi xalqqa, Turkistonga muhabbatini so'ndira olmadi. U o'zbek madaniyatida o'ziga xos ilmiy salohiyatga ega adabiyotshunos, munaqqid sifatida qoldi.